



AHOLINI EMLASH BILAN QAMRAB OLIISH TENDENSIYASI MILLIY EMLASH TAQVIMI

Barakayeva Nigina Akbar qizi

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani

Abu Ali ibn Sino nomidagi

Jamoat salomatligi texnikumi

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholini emlashning zamonaviy tendensiyalari, emlashning jamoat salomatligidagi o'рни va O'zbekiston Respublikasining milliy emlash taqvimi keng yoritilgan. Emlashning profilaktik ahamiyati, bolalar va kattalarni emlash bosqichlari, revaksinasiya zaruriyati hamda pandemiya davri tajribasi tahlil qilingan. Maqolada aholini emlash orqali yuqumli kasalliklarni kamaytirish, epidemiologik bararorlikni ta'minlash va sog'lom avlodni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Emlash, immunizasiya, vaksina, milliy emlash taqvimi, profilaktika, jamoaviy immunitet, yuqumli kasalliklar, revaksinasiya.

Annotasiya: V dannoy stat'ye podrobno rassmatrivayutsya sovremennyye tendentsii v vaktsinatsii naseleniya, rol' vaktsinatsii v obshchestvennom zdavookhranении i natsional'nyy kalendar' vaktsinatsii Respubliki Uzbekistan. Analiziruyutsya profilakticheskoye znachenіye vaktsinatsii, etapy vaktsinatsii detey i vzroslykh, neobkhodimost' revaktsinatsii i opyt pandemicheskogo perioda. Osoboye vnimaniye udelyayetsya voprosam snizheniya infeksionnykh zabolevaniy posredstvom vaktsinatsii naseleniya, obespecheniya epidemiologicheskogo ravenstva i formirovaniya zdorovogo pokoleniya.

Klyucheviye slova: Vaktsinatsiya, immunizatsiya, vaksina, natsional'nyy grafik vaktsinatsii, profilaktika, kollektivnyy immunitet, infeksionnyye zabolevaniya, revaksinasiya.



Abstract -This article extensively covers modern trends in population vaccination, the role of vaccination in public health, and the national vaccination calendar of the Republic of Uzbekistan. The preventive importance of vaccination, the stages of vaccination of children and adults, the need for revaccination, and the experience of the pandemic period are analyzed. The article pays special attention to the issues of reducing infectious diseases through population vaccination, ensuring epidemiological equilibrium, and forming a healthy generation.

Keywords: Vaccination, immunization, vaccine, national vaccination schedule, prevention, herd immunity, infectious diseases revaccination

Emlash yoki vaksinatsiya — Organizmda muayyan yuqumli kasallikka qarshi sun'iy immunitet hosil qilish maqsadida vaksina qo'llash jarayonidir. Vaksinalar organizmni kasallikka chalinmasdan oldin himoya qilishga yordam beradi.

odam va hayvonlarda infeksiyon kasalliklar yuqishining oldini olish usuli. Bunda organizmga vaksinalar, immun zardoblar yoki gammaglobulin yuborib, sun'iy faol yoki passiv immunitet hosil qilinadi. Sun'iy faol immunitet hosil qilish uchun odam vaksinalar bilan emlanadi, bunda organizmda yuborilgan vaksina tarkibidagi antigenlarga qarshi faol immunitet rivojlanadi.

Emlashda vaksinalarni teri ustiga, teri ostiga, muskul orasiga, burun va og'iz orqali yuborish mumkin. Vaksinalar bilan emlash jadvali har xil: bir marotaba, ikki, uch marotaba va hokazo. Sun'iy faol immunitet immunizatsiya tugaganidan so'ng 2-3 hafta o'tgach paydo bo'ladi va oylab, hatto yillab saqlanib qoladi. Takror emlash (immunitet darajasi susayganda) **revaksinatsiya** deb ataladi.

Sun'iy passiv immunitet organizmning himoya faoliyatini oshirish, ko'zda tutilgan tegishli yuqumli kasallikka qarshi chidamlilik yoki boshlangan kasallikning kechishini yengillashtirish maqsadida qilinadi. Bir qancha yuqumli kasalliklar (odamlarda gepatit

V, sil, bo'g'ma, qoqshol, ko'kyo'tal, qizamiq, tepki, poliomiyelet;



hayvonlarda brutsellyoz, quturish, o'lat, oqsim va boshqalar)ga qarshi rejali ravishda; ayrim yuqumli kasalliklar (gripp, ich terlama, kuydirgi, tulyaremiya va boshqalar)ga qarshi esa epidemiologik zaruriyat bo'yicha emlanadi (Shuningdek qarang: Immunoprofilaktika).

Emlash poliklinikalarda yoki emlash markazlarida maxsus tayyorlangan tibbiyot xodimi tomonidan vrach nazoratida o'tkaziladi. Bolani emlashdan avval uning gavda harorati o'lchanadi va qanday kasalliklar bilan og'rganligi so'rab surishtiriladi; vrach bolani sinchiklab tekshirib, uni emlash mumkin yoki mumkin emasligini aniqlaydi. Yuraktomir, markaziy nerv sistemasi kasalliklaridan tuzalgan yoki surunkali kasalliklari bor bolalar tegishli muhassislar ko'rigidan o'tganidan so'ng emlanishi lozim. Bola emlanganda ba'zan kuchli reaksiya yuzaga keladi, shuning uchun emlangandan keyin u ma'lum bir vaqt davomida vrach nazoratida bo'lishi kerak.

Emlash mahalliy va umumiy ta'sir ko'rsatishi, ya'ni emlangan joy sal qizarishi, shishishi, og'rishi, harorat ko'tarilishi va umumiy darmonsizlik kuzatilishi mumkin. Emlangan bola juda bezovtalansa, qattiq isitmalasa darhol vrachga murojaat qilish zarur. Bolalar yoki kattalarning emlanganligi haqidagi ma'lumotlar ularning tibbiy hujjatiga qayd etiladi. Ota-onalar bolasiga qanday emlash o'tkazilganini va qaysilari qachon qilinishi kerakligini yaxshi bilishlari, shuningdek, emlashning belgilangan muddatda o'tkazilishiga amal qilishlari zarur, chunki o'z vaqtida o'tkazilgan emlash juda yaxshi naf beradi. Bugungi kunda Respublikamizda ko'pgina og'ir kechuvchi yuqumli kasalliklarga qarshi rejali ravishda va epidemiologik holatlarga qarab bolalar va xavfli guruhga kiruvchi katta kishilar davlat tomonidan bepul emlanadi. O'tkazilgan chora-tadbirlar tufayli O'zbekiston hududida shol kasalligi oxirgi yillarda qayd etilmayapti, shuningdek, bo'g'ma, qizamiq, tepki, gepatit V kasalliklari bolalar orasida keskin kamaydi

Aholini emlash bilan qamrab olish tendensiyalari (immunization coverage) — bu emlash taqvimiga kiritilgan vaksinalarni o'z vaqtida olgan aholi



(odatda bolalar) ulushi, ya'ni umumiy aholining necha foizi immunizatsiya bilan qoplanayotganini aks ettiradi. Bu ko'rsatkich:

- infeksiyalarga qarshi immunitet darajasini ko'rsatadi
- sog'liqni saqlash samaradorligini baholashda muhim
- ommaviy kasalliklar tarqalishini oldini olishda poydevor hisoblanadi

Bolalarni to'liq emlash –bolalar tug'ilganidan boshlab belgilanganyosh davrlarida milliy emlash taqvimi asosida emlanadi.Bu polimiyelit, qizamiq,difteriya,ko'k'yo'tal,stolbinyak kabi kasalliklarni kamaytirishga olib keladi.

Revaksinasiya tadbirlari-Ayrim vaksinalarning ximoya ta'siri vaqt o'tishi bilan pasayishi mumkin.Shu sababli qayta emlsh(revaksusanniya)amalga oshiriladi.

Kattalarni emlash-Covid-19 pandemiyasi emlashning ahamiyatiniyanada oshirib, profilaktikaning ustivorligini nomoyon etadi.

O'zbekiston Respublikasini milliy emlash taqvimi

T/R	Yosh davri	Emlash turi
1	Tug'ilgandan 1-3 kun	BSJ (silga qarshi). Gepatit-1
2	1-oy	B hepatit- 2
3	2 -oy	AKDS – 1, Polimiyelit -1
4	3- oy	AKDS – 2, Polimiyelit -2
5	4- oy	AKDS – 3, Polimiyelit -3
6	12- oy	Qizamiq,qizilcha, parotit(KKP)
7	18- oy	AKDS , polimiyelit revaksinasiya
8	6- yosh	KKP, revaksinasiya
9	7- yosh	BSJ, revaksinasiya (ko'rsatmaga ko'ra)
10	14- yosh	ADS-M (difteriya va stolbnyakka qarshi)
11	16- 18 yosh	ADS-M revaksinasiya

Kattalar uchun emlashlar

1	Har 10- yilda 1 marta	ADS-M
2	Har yili (xavf guruhidagilarga)	Grippga qarshi
3	Ko'rsatnaga ko'ra	B gepatiti



4	Epidemiologik vaziyatga qarab	COVID-19
---	-------------------------------	----------

Milliy emlash taqvimini doirasi o'ziga bormoqda:

- So'nggi 5 yilda **milliy taqvimga 4 ta yangi vaksina qo'shildi.**

- **Koronavirusga qarshi emlashda aholining 83,3% to'liq qamrab olindi**

va buster doza bilan qamrov ~81,4% bo'ldi.

- Grippga qarshi ham millionlab odam emlandi.

- 2022 yilda bolalarda yuqumli kasalliklarga qarshi emlash qamrovi 98% atrofida bo'ldi.

- O'zbekiston vaktsinatsiya kampaniyasi yo'nalishida samarali ishlaganligi sababli ko'plab xavfli kasalliklar yo'q qilindi yoki darajasi sezilarli pasaydi. Bu real trendlar milliy emlash tizimining qamrovini va kengayishini ko'rsatadi.

Tendensiyalarning umumiy xulosalari

-Aksariyat davlatlarda vaktsinalar milliy taqvimga kiritilgan va yetarlicha yetkazilmoqda.

-O'zbekiston va boshqa ko'plab mamlakatlarda epidemiologik holat yaxshilanmoqda — ayrim kasalliklar yo'q qilindi.

-HPV va boshqa yangi vaktsinalar qamrovi oshmoqda (garchi maqsaddan past bo'lsa ham).

E'tirof etiladigan muammolar.

-Global qamrov ba'zi hududlarda barqaror, biroq pandemiya oldingi ko'rsatkichlarga qaytmayapti.

-Zero-dose bolalar soni yuqori — bu qisman yetishmayotgan xizmatlar, yetarlicha tarqatilmagan axborot va mintaqaviy muammolar bilan bog'liq.

-Yuqori darajadagi immunitet talab qiladigan kasalliklarda (masalan, qizamiq) past qamrov hatarlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi "Milliy emlash taqvimini"

2.Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) Immunization in practice.

3.Abu Ali Ibn ino tib qonunlari.



4. Global vaksinasiya va immunizasiya bo'yicha qo'llanmalar

5. „Статистический сборник 2017 год“ (ru). www.rosminzdrav.ru. Qaraldi: 2019-yil 30-mart.

1 [www. Med info .uz](http://www.Medinfo.uz)

4. [www. Ziyonet .uz](http://www.Ziyonet.uz)

2. [www. Library . uz](http://www.Library.uz)

5. [www. Buhti.uz](http://www.Buhti.uz)

3. [www. TTA.uz](http://www.TTA.uz)

6. [www. Google](http://www.Google)